

O'ZBEKISTONDA IJTIMOY XIZMATLARNI TASHKIL ETISH STRUKTURASI

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

KAXXOROV BEKNAZAR XUSAN OGLI

RAHMONOVA SEVARA ABDUSATTOR QIZI

ILMIY MASLAHATCHI: IBRAGIMOV JAHONGIR TOSHNIYOZOVICH

Annotatsiya: Ushbu maqolada, hozirda mamlakatimizda mavjud bo'lgan ijtimoiy xizmatlar to'g'risida, ularning asosiy vazifasi nima ekanligi va u qaysi tashkilotga tegishliligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, jamiyat, pensiya jamg'armasi, muruvvat uyi, talaba.

Abstract: This article talks about the social services currently available in our country, what is their main task and which organization it belongs to.

Key words: social protection, society, pension fund, charity house, student.

Аннотация: В данной статье рассказывается о социальных услугах, имеющихся в настоящее время в нашей стране, какова их основная задача и какой организации они принадлежат.

Ключевые слова: социальная защита, общество, пенсионный фонд, дом милосердия, студент.

Mamlakatimizda jamiyat uchun yaratilgan turli ijtimoiy xizmatlar mavjud bo'lib, barchasi zamon bilan hamnafas rivojlanib boradi. Misol uchun, oddiy tez yordam xizmatini olsak, bir necha yillar muqaddam mashinalarning oddiysidan, uning ichki qismida joylashgan tibbiyot anjomlari juda kam va hozirgilardan ancha farq qiluvchi texnikalardan foydalanilgan, hozirda esa tez yordam mashinalari uchun alohida bemor, uning yaqinlari va shifokorlar uchun qulaylilar yaratish maqsadida zamonaviy mashinalar

shifoxonalarga hukumat tomonidan taqdim etilayotganiga guvoh bo'lamiz, ularning ichki qismi kengligi, qulayligi bilan boshqa transportlardan farqlanadi.

Hozirda mamlakatimizda quyidagi ijtimoiy xizmatlar mavjud bo'lib, ular uzoq yillardan buyon jamiyatning mushkullarini yengil qilib kelmoqda:

- [Bola tug'ilgani uchun beriladigan nafaqa \(suyunchi puli\)](#)
- [Bolalar uyiga qabul qilish](#)
- [Bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini oziq-ovqatlar va kiyim-kechak bilan ta'minlash](#)
- [Mahallalarda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish](#)
- [Talabalarga ijara to'lovining bir qismini qoplab berish tartibi](#)
- [Nogironligi bo'lgan bolalarni "Muruvvat" internat uylariga qabul qilish](#)
- [Nogironligi bo'lgan shaxslarni "Muruvvat" internat uylariga qabul qilish](#)
- ["Saxovat" internat uylariga qabul qilish](#)
- [Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionatiga qabul qilish](#)
- [Kompensatsiya to'lash nazarda tutiladigan reabilitatsiya texnik vositalari yoki](#)

[ko'rsatilgan xizmatlar](#)

- [Ambulatoriyada davolanishda dori vositalari bilan imtiyozli ta'minlanish](#)
- [Shahar yo'lovchi transportidan bepul foydalanadigan shaxslar](#)
- [Sanatoriyalarda davolanish uchun yo'llanmalar berish](#)
- [Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarini va ularning](#)

[oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar \(migrant\)](#)

- [O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi](#)
- [Mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini](#)

[mustahkamlash markazlari](#)

- [Ijtimoiy himoya milliy agentligi](#)
- [Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi murojaatlarini tezkor ko'rib chiquvchi "ishonch telefoni"](#).

[Bola tug'ilgani uchun beriladigan nafaqa \(suyunchi puli\)](#) – ushbu nafaqa onalarga, agar ishlaydigan bo'lsa ishlaydigan joyidan, o'qiydigan bo'lsa o'qish joyidan, eri ishlasa uning ishlash joyidan, agar ikkovlari ishlamaydigan bo'lsa pensiya jamg'armasidan beriladi. Ushbu nafaqani olish uchun FHDYO bo'limiga bolaning tug'ulganlik guvohnomasini topshirgan holda ariza bilan murojaat qilinadi. Aytib o'tish lozimku uni 6 oy ichida ariza bilan chiqish lozim bo'ladi, ariza kechiktirilgan holda pensiya to'lab berilmaydi.

[Bolalar uyiga qabul qilish](#) – bolalar uyi yetib bolalar, ota-ona qarovisiz qolgan bolalar hamda psixofizik rivojlanishi buzilgan bolalar uchun davlat ta'lim-tarbiya va davolash-sog'lomlashtirish muassasasi hisoblanadi.

Bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini oziq-ovqatlar va kiyim-kechak bilan ta'minlash – tarbiyalanuvchilar oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishning tasdiqlangan o'rtacha sutkalik oqilona normalariga binoan oziq-ovqat, shuningdek belgilangan normalar bo'yicha kiyim-kechak, poyabzal, yumshoq anjomlar bilan ta'minlanadilar. Tarbiyalanuvchilar «Mehribonlik» uylariga yoki «Muruvvat» bolalar internat-uylariga o'tkazilganda ularga ichki kiyim, kiyim-bosh va mavsumiy poyabzal beriladi.

Talabalarga ijara to'lovining bir qismini qoplab berish tartibi - ijara huquqi asosida yashaydigan talabalarning oylik ijara to'lovi bir qismini qoplab berish davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobga qo'yilgan ko'chmas mulk ijara shartnomasiga muvofiq ijara huquqi asosida yashaydigan ariza beruvchilarga nisbatan tatbiq etiladi.

“Saxovat” internat uylariga qabul qilish – “Saxovat” internat uylari O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, O'zbekiston Respublikasi [Oila kodeksiga](#) muvofiq ularni parvarish qilishi shart bo'lgan birinchi darajadagi qarindoshlari yoki vasiylari bo'lmagan yolg'iz keksalar, 18 yoshidan boshlab I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hamda o'zгалar parvarishiga muhtoj yolg'iz yashovchi I guruh nogironligi bo'lgan keksalar uchun tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatadigan davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi. Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionatiga qabul qilish - O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan 18 yoshdan

boshlab I va II guruhlar nogironligi bo'lgan shaxslar hisoblangan hamda O'zbekiston Respublikasi [Oila kodeksiga](#) muvofiq ularni parvarish qilishi shart bo'lgan birinchi darajadagi qarindoshlari yoki vasiylari bo'lmagan yolg'iz keksalar, urush va mehnat faxriylari, o'zgarar parvarishiga muhtoj yolg'iz yashovchi I guruh nogironligi bo'lgan keksalar uchun tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatadigan davlat tibbiy-ijtimoiy muassasasi hisoblanadi.

Ambulatoriyada davolanishda dori vositalari bilan imtiyozli ta'minlanish - ambulatoriyada davolanishda dori vositalari bilan imtiyozli ta'minlanish huquqiga quyidagilar ega bo'ladilar:

- onkologik kasalliklarga chalinganlar;
- sil kasalligiga chalinganlar;
- moxov kasalligiga chalinganlar;
- endokrinologik kasalliklarga (qandli va qandsiz diabetga) chalinganlar;
- ruhiy kasalliklarga chalinganlar;
- OIV kasalligini yuqtirganlar;
- yurak klapanini protezlash va organlarni ko'chirish yuzasidan operatsiya qilingan shaxslar;
- dasturli gemodializ oluvchi bemorlar;
- o'zgarar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlar;
- 1941-1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar;
- 1941-1945-yillardagi urush mehnat fronti qatnashchilari;
- Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan — nogironligi bo'lgan shaxslar;
- baynalmilalchi jangchilar;
- harbiy xizmatni yadro poligonlarida va boshqa radiatsiya-yadro ob'ektlarida o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar.

Mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari - mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari har bir mahallada tashkil etiladi va yuridik shaxs hisoblanmaydi. Markazlarda bitta ijtimoiy loyiha doirasida 20 nafargacha xotin-qizlarning doimiy bandligini ta'minlash maqsadida bandligi ta'minlanadigan har bir nafar ishsiz xotin-qiz uchun tadbirkorlarga 3 million so'mgacha davlat granti ajratiladi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi - aholiga ko'rsatiladigan barcha turdagi ijtimoiy xizmatlar va yordamlar, shu jumladan kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordamlar bo'yicha arizalar "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali qabul qilinadi Yuqorida keltirib o'tgan davlatga tegishli bo'lgan barcha ijtimoiy xizmatlarning tuzilmasi hukumat tomonidan mukammaltarzda ishlab chiqilgan. Bu xizmatlardan foydalangan shaxslar hukumat orqali o'z mushkullarini yengil qilib kelmoqdalar. Hukumatimizda 2022- 2023 yillarning nomlanishi inson omiliga borib taqalishi ham bejiz emas, davlatimiz o'z qaramog'idagi barcha fuqarolariga qayg'urgan holda, uning moddiy tomonidan, ma'naviy tomonidan, jismoniy yordamga muxtoj fuqarolarini ham o'ylagan holda, yildan yilga ijtimoiy yordamga muxtoj shaxslar uchun keng ko'lamda yordamchi tadbiriy ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Ularning negizida hozirda millatimizda nogironlarni ham, aqliy zaiflarni ko'chalarda sarson yurganlariga ko'zingiz tushmaydi. Oddiy misol tariqasi, katta savdo markazlarida nogironlik aravachasi belgilari orqali nogironlarga alohida sharoitlar yaratilgan, ko'zi ojizlar uchun xatto lift knopkalarida Brayl alifbosi orqali ularga ham sharoit yaratilganligini guvohi bo'lamiz. Aslida ko'cha-ko'yda e'tibor bilan atrofga nazar solib yursak ijtimoiy xizmatlarning hech bo'lmaganda kichik bir loyihasiga ko'zimiz tushadi va buni inkor qila olmaymiz.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, davlatimiz qaramog'ida tarbiya ko'rayotgan qanchadan qancha bolalar, ijtimoiy xizmatlardan doimiy foydalanib keluvchi, ushbu yordamga muxtoj shaxslar mavjud bo'lib, ularning hammasini muxtoj deyishimiz noo'rin

hisoblanadi, masalan talabalar uchun kvartira shartnomasida talabalarning hammasi ham bunga muxtoj emaslar lekin davlat talabalarga ham yengillik yaratish maqsadida manashu xizmatni yo'lga qo'ygan desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlatimizda har haftaning juma kunini "Mehr va saxovat" kuni deb e'tirof etilgan bo'lib, mana shu kunda barcha tashkilotlar ehtiyojmand aholi, nogironligi bo'lgan shaxslar va yolg'iz yashovchi keksalar holidan xabar olish, ularga g'amxo'rlik qilish va hayriya tadbirlari o'tkaziladi. Yuqorida barcha aytilgan xizmatlar va yordamlar davlatimizda qonun bilan belgilangan bo'lib, ularga qarshi qilingan xatto harakatlar qonun oldida javob beradi .

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari:

1. O'zbekistonda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi.
<https://uzreport.news/society/ozbekistonda-inson-ijtimoiy-xizmatlar-markazlari-tashkil-etildi>
2. Ijtimoiy xizmatlar va moddiy yordamning boshqa turlari.
<https://advice.uz/oz/category/377>
3. Tibbiy Va Ijtimoiy Xizmat. <https://redcrescent.uz/uz/activities/medic-social-service/>
4. Ijtimoiy Xizmatlar: Tamoyillari Va Turlari.
<https://uz.atomiyme.com/ijtimoiy-xizmatlar-tamoyillari-va-turlari/>
5. O'zbekiston Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi.
https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Tibbiy-ijtimoiy_xizmatlarni_rivojlantirish_agentligi